
QONUNCHILIKDAGI YANGILIKLAR



Qonunchilikdagi yangiliklar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 9 noyabrdagi PF-244-sonli "Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga asosan 2023 yil 1 yanvardan:

- tadbirkorlik sub'ektining ustav fondini (ustav kapitalini) kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilinganda kreditorlarni yozma ravishda xabardor qilish va ommaviy axborot vositalarida bu haqida e'lon berish;
- yangi import avtomobillarini sotish faqat yuridik shaxslar — ishlab chiqaruvchi korxonalarining rasmiy dilerlari tomonidan amalga oshirilishi;
- elektr energiyasini elektr ta'minoti shartnomasida belgilangan hajmlardan (oylik shartnomaviy miqdordan) ortiqcha iste'mol qilgan yuridik shaxslarga elektr energiyasi yetkazib berishni to'xtatib qo'yish;
- yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan yollangan xodimlarni Yagona milliy mehnat tizimida hisobga olish orqali davlat soliq xizmati organlarida alohida hisobga qo'yish tartiblari bekor qilindi.

O'ktamjon Ergashev - So'x tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi boshlig'i

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-01-06 16:10:10